

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



Ro'yxatga olindi:

№ BD-5120100 – 3.07

2017 yil "18" o8

**O'ZBEK FOLKLORI**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish  
(o'zbek tili)



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil "24" 08 dagi "603"-sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2017-yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

#### Tuzuvchilar:

Sh. Turdimov – ToshDO'TAU, "Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrası professori, filologiya fanlari doktori

A. Tilavov – ToshDO'TAU, "Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrası mudiri v.b., filologiya fanlari nomzodi

#### Kadrlar iste'molchisi:

Mahmudov N. – O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor

#### Taqrizchilar:

L. Aminova – TDSH dosenti, filologiya fanlari nomzodi.

U. Jo'raqulov – ToshDO'TAU, "Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrası katta ilmiy xodim-izlanuvchisi, dotsent, f.f.n.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2017-yil "24" - avgustdagi 80x-sonli bayonnomasi).

#### I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur O'zbek filologiyasi fakultetining I-bosqich bakalavr yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risidagi" farmonida o'zbek folklorining tarixan shakllangan adabiy, lingvistik maktablari va ta'limotlari, ajdodlarimiz badiiy tafakkurining bebaho yodgorliklarini chuqur tadqiq etish asosiy vazifalarimizdan biri etib belgilangan.

Mazkur fan asoslarini o'zlashtirish "Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti" ekanligi bilan belgilanadi.

"O'zbek folklori" asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi. Ushbu fan dasturi "Til tarixi", "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti", "O'zbek dialektologiyasi" kabi umumkasbiy fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ushbu fanlarda aks etgan ayrim adabiy-nazariy masalalarni qamrab olishi jihatidan uyg'unlik kasb etadi.

#### II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga xalq og'zaki ijodi namunalari sinkretik san'at sifatida xalq hayotida muhim o'rin tutishini, unda o'zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o'zining badiiy ifodasini topganini, xalqning o'z vatani uchun ifxior tuyg'usi aynan og'zaki ijod zaminida tashkil etishi ko'nikmalarini shakllantirish.

Bunda talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, xalq og'zaki ijodining sinkretik san'at ekanligini, boshqa san'at turlaridan farqli jihatlarini ko'rsatib berish, o'zbek folklorining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalq og'zaki ijodi davlat maqomiga erishganligi haqidagi bilimlarini shakllantirish;

talabalarining xalq og'zaki ijodi janrlari va ularning xususiyatlarini aniqlash, janrlararo munosabat mezonlarini belgilash, adabiyot va folklor munosabati haqidagi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;

talabalar o'zbek xalq og'zaki ijodining jahon folklori merosida munosib o'rnini anglashi va baholash malakalariga ega bo'lishi kerak.

#### III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

##### O'ZBEK FOLKLORIGA KIRISH

1-mavzu. Mustaqillik davrida "O'zbek xalq og'zaki ijodi"ni o'rganishning yetakchi masalalari. Folklor ma'naviy tarbiyaning poydevori.

Xalq og'zaki ijodi so'z san'ati sifatida

Prezidentimiz I.A. Karimovning asarlarida ma'naviyat va folklor haqidagi fikrlariga tayanilib, mavzular ko'lami ochildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat



o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risidagi" farmoni mavzu bilan bog'lab sharhlanadi. Folklorning so'z san'atiga aloqasi va san'at inson tafakkur salohiyatining natijasi ekanligi o'rganiladi. Mahorat va fikriy kashfiyot san'atning muhim belgilaridan biri xususida so'z boradi. Xalq og'zaki ijodi namunalari mahorat, aqliy (fikriy) kashfiyot namunalarning badiiy ifodasi sifatida tahlil qilinadi.

## 2-mavzu. Mif va uning badiiy talqinlari. Afsona, rivoyat, naqlarning badiiyati

Mif tushunchasi izohlanib, uning xalq og'zaki ijodi asarlari tarkibiga badiiy estetik holatda o'tish jarayoni o'rganiladi. Mifologik tafakkurning badiiy estetik tafakkurga o'tish bosqichlari afsona, rivoyat, naql, epos, ertak, qo'shiq misolida ochib beriladi. Afsona, rivoyat, naql atamallari haqida ma'lumot. Ularning umumiy daraxti, suv, olov va hayvonlar bilan bog'liq afsona va rivoyatlar tahlil etiladi. To'maris va Shiroq rivoyatlari asosida Vatan mavzusi yoritiladi.

## 3-mavzu. Mavsumiy va oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati

Mavsumiy marosim folklorida so'z magiyasining badiiy estetik sathga o'tishi va boshqa masalalar yoritiladi. Xalqona taqvimlar, Navro'z, shohmoylar, Sust xotin, Choy momo, loy tutish kabi marosimlarning verbal tizimi tahlil etiladi. Oilaviy marosim janrlari yor-yor, kelin salom, o'lan va boshqa namunalarining badiiyati, ma'no qatlamlari ko'rsatiladi. Ushbu marosim janrlarining obrazlar tizimi, she'riy tuzilishi ohang yo'llari tahlil etiladi, o'ziga xos jihatlari yoritiladi.

## 4-mavzu. Xalq dostonlari

Doston janri haqida ma'lumot. Doston - xalq og'zaki ijodining sinkretik janri sifatida. Dostonda badiiy matn (nazm va nasr) va musiqaning o'rni. Xalq baxshilari, dostonchilik maktablari haqida ma'lumot. Xalq dostonlarining ijro an'anasiga ko'ra (Samarqand, Xorazm, Farg'ona) turlari. Dostonlarning tasnifi (qahramonlik, romanik, tarixiy, kitobiy, jangnoma dostonlari) haqida ma'lumot. Xalq dostonlarida turkumlik.

5-mavzu. Qahramonlik dostonlarining g'oyaviy badiiy xususiyatlari "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlari g'oyaviy-badiiy sathda o'rganiladi. Epos va etnos masalasi ko'rib chiqiladi. Dostonlardagi yetakchi qahramonlar genezisi tadjriy bosqichlari yoritiladi. Asosiy motivlarning syujet ko'lamidagi o'rni o'rganiladi. Dostonlardagi epik qoliplar, an'anaviy she'riy takrorlarning badiiyati keng yoritib beriladi.

6-mavzu. Romanik va kitobiy dostonlarning g'oyaviy badiiy xususiyatlari "Ravshan", "Qunduz va Yulduz", "Kuntug'mish", "Malika Ayyor", "Orzigul" kabi dostonlar poetikasi tahlili orqali romanik dostonlarga xos xususiyat va belgilari ochiladi. Romanik dostonlarning yetakchi motivlari, ularning qahramonlari, syujet tiplari, badiiy tasviriy vositalari, g'oyaviy qatlamlari tahlil

qilinadi.

"Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Bahrom va Gulandon" kabi dostonlar asosida folklor - adabiyot - folklor tadjriy o'tish bosqichlarini, bu dostonlarning xalq badiiy estetik tafakkuri rivojidagi o'rni va xizmatlari ko'rsatiladi, folkloriy tafakkurning qonuniyatlari borasida so'z yuritiladi.

## 7-mavzu. Xalq ertaklari

Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri ekani. Ertak janrini anglatuvchi atamalar. Ertakda xalq hayoti, orzu-istaklari, psixologik dunyosining aks etishi. Xalq ertaklarining janr xususiyatlari. Ertaklarning mazmuniga ko'ra tasnifi.

A) Hayvonlar haqidagi ertaklar. Hayvonlar haqidagi ertaklar genezisi, ularning mifologik va mavsumiy marosimlar bilan aloqasi, badiiy ramz va timsollari haqida so'z boradi. "Susambil", "Luxum bilan buyrak", "Qirg' quloq", "Ovchi, ko'kcha va dono", "Bo'ri bilan tulki" kabi ertaklar tahlili vositasida nazariy fikrlar dalillanadi.

B) Sehrli-fantastik ertaklar va ularning talqinlari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Sehrli-fantastik ertaklar mag'zidagi xalq falsafiy dunyoqarashi va uning badiiy talqinlari, ramz va timsollari ochiladi. "Kulsa gul, yig'lasa dur", "Ur, to'qmoq", "Ahmadlar", "Gungula", "Dunyoda yo'q humar" kabi ertaklar tahlili orqali sehrli-fantastik ertaklarning badiiyati, g'oyaviy mazmuni ko'rib chiqiladi.

V) Hayotiy-maishiy ertaklar. Hayotiy-maishiy ertaklarda ijtimoiy hayot muammolari ifodasi. Ularda do'stlik, mardlik, zakiylik, insonparvarlik kabi shaxs fazilatlarining ulug'lanishi. "Uch ko'r va bir yigit", "Egri va to'g'ri", "Uch og'ayni botirlar" kabi hayotiy-maishiy ertaklarning badiiy qimmatini, g'oyaviy ko'lamini yoritiladi. Hayotiy-maishiy ertaklarga xos syujet tiplari, yetakchi motivlar, asosiy qahramonlar o'rganiladi.

## 8-mavzu. Mehnat qo'shiqlari va termalar

Mehnat qo'shiqlarining folklor san'atidagi o'rni ochiladi. Qo'shiqlarning mehnat turlariga ko'ra farqlanishi, mehnat jarayoni va ibtidoda turli marosimlar bilan bog'liq jihatlari ko'rsatiladi. Mehnat qo'shiqlari tarkibiga kirgan lirik xarakterdagi namunalar, xususan, "Yozi qo'shiqlari" va boshqa misollar keng talqin etiladi. Terma janrining xalq epik ijodidagi o'rni, mavzu doirasi, g'oyaviy badiiy xususiyatlari ko'rsatiladi. Xalq termalarining baxshi-shoirilar ijodidagi epik asarlar ijro jarayonidagi vazifalari tahlil etiladi. An'anaviy va individual termalar qiyosan o'rganiladi.

## 9-mavzu. Lirik qo'shiqlar

Lirik qo'shiqlarga xos xususiyatlar, ularning ijro o'rni, ohang yo'llari, an'anaviy takrorlari, qo'shiqlarda parallelizm, vazn, qofiya, badiiy til masalalari mavzu turlari o'rganiladi. Lirik qo'shiqlarda ramz va timsollarning vazifalari ko'rsatiladi. Qo'shiqlarning janr xususiyatlari, asosiy xossalari o'rganiladi, ularning inson qalb kechimmalari tarjimoni ekanligi ta'kidlanadi.



**10-mavzu. Bolalar folklori va ularning talqinlari, badiiy xususiyatlari**  
Bolalar folklori xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida. Bolalar ertaklari va qo'shiqlari misolida xalqning qadimiy dunyoqarashlari, marosimlari izining badiiy ko'rinishda saqlanib kelayotgani va so'z san'atining o'ziga xos muhim bosqichi sifatida namoyon bo'lishi tahlil etiladi. Bolalar qo'shiqlarining tasnifi, o'yin va qo'shiq hamda boshqa masalalar batafsil yoritiladi.

#### **11-mavzu. Xalq maqollari va topishmoqlar**

Paremiologiya haqida ma'lumot. Maqol va uning janr xususiyatlari. Maqollarning badiiyati, obrazlilik, o'z va ko'chma ma'nolari. Xalq maqollarning tasnifi, semantik ko'lami, ularning boshqa parmeologik janrlardan farqli jihatlari, janriy xususiyatlari ko'rsatiladi. Topishmoqlarda narsa va hodisalarning obrazlar vositasida yashirinib kelishi, ularning til imkoniyatlarini ochuvchi, inson aqlini charxlovchi o'ziga xos janr ekanligi yoritiladi.

Topishmoq – paremik janr sifatida. Topishmoqlarning ma'rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari. Topishmoq poetikasi (timsollar olami, syujet va kompozitsion jihatlari). Topishmoq va chiston, muammo, tarix. An'anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari.

#### **12-mavzu. Latifalar, lof**

Latifa xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan kichik nasriy janri sifatida. Latifalarning janr xususiyatlari va badiiy qatlam ma'nolari ochiladi. Ullarning kompozitsion jihati, til xususiyatlari, zamonaviy latifalarning ijtimoiy mazmuni yoritiladi. Nasriddin Afandi obrazining genezisi va unga yondash O'vul Patta, Jiyron Chechan kabi qahramonlar bilan bog'liq jihatlari ko'rsatiladi.

Loflardagi mubolag'a san'atining o'rni va badiiy vazifalari tahlil etiladi. Loflar – askiyaga yaqin turuvchi janr sifatida. Mubolag'a va uning turlari haqida ma'lumot.

#### **13-mavzu. Askiya**

Askiya san'atining noyob folklor janri ekanligi, o'ziga xos belgilari. Askiya o'zbek xalqining milliy merosi sifatida. Askiyaning payrov, gulmisiz, o'xshatdim va boshqa turlari. So'z o'yinlarining askiyadagi ahamiyati. Askiyachilar haqida ma'lumot. Askiyachi ijodida omonim so'zlardan foydalanish mahorati. Askiyalarning turlari, askiyachilari haqida ma'lumotlar beriladi.

#### **IV. Amaliy va seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari, versiya va variantlarining farqli jihatlari
2. Mif, afsona, rivoyatlar va ularning adabiyotdagi o'rni Xalq qo'shiqlarida timsollar talqini
3. "Navro'z" bayrami an'analari, Oilaviy marosimlar tadriji
4. Baxshilik san'ati, dostonchilik maktablari va doston turlari

5. "Alpomish" dostoni

6. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari

7. "Layli va Majnun" dostonining yozma namunalari qiyosi

8. Susambil", "Egri va To'g'ri", "Ur to'qmoq", "Dunyoda yo'q hunar" ertaklari tahlili

9. Mehnat qo'shiqlari namunalari qiyosiy tahlili

10. Bolalar qo'shiqlari va ertaklari tahlili

11. Lirik qo'shiqlardagi ramzlar

Amaliy mashg'ulotlardan talabalarning folklor asarlarni o'qish, tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishi va erishilgan natijalarni kelgusi faoliyatlarida qo'llay bilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda, asosan, birlamchi nazariy manbalar bo'yicha savol-javoblar uyushtiriladi. Savol-javoblar jarayonida mavzularning umumiy xususiyatlari haqida xulosa qilinadi.

**Izoh:** Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlaydilar. Bunga jamoa bo'lib folklor janrlari haqida bahs-munozaralar uyushtirish va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, tarqatma va ko'rgazmali ashyolarning, shuningdek, folklor ekspeditsiyalari jarayonida to'plangan materiallarning ahamiyati kattadir.

Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish tavsiya etiladi.

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos belgilari

2. Xalq og'zaki ijodining janrlari. Janrlararo munosabatlar

3. "Yor-yor" va "Kelin salomlar"

4. Motam qo'shiqlari

5. "Kuntug'mish" dostoni tahlili

6. "Malikati ayvor" dostoni tahlili

7. Alla qo'shiqlari

8. O'lan janri talqini

9. Xalq maqollari va topishmoqlar talqini

10. Latifa va loflarning qiyosiy talqinlari

11. Askiya- so'z san'ati turi

12. Tomosha san'ati janrlari tahlili

Seminar mashg'ulotlari fanning asosiy masalalariga aloqador bo'lib, unda talabaning mustaqil fikrlashi, xalq og'zaki ijodida ifodalangan hayot haqiqati va badiiy to'qima munosabatini tahlil qilishi talab etiladi hamda mavzular bo'yicha badiiy, ilmiy adabiyotlar mohiyatini to'g'ri tushunib mavzu yuzasidan fikr bildirishi baholanadi. Asosiy e'tibor xalq og'zaki ijodi asarlaridagi g'oyaviy yo'nalish zaminida talabaning xalq qadriyatlarini ruhiyda tarbiyalanishiga qaratiladi.

**Izoh:** Seminar mashg'ulotlari talabalarni xalq og'zaki ijodiga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini darslarda munozara yoki ma'ruza shaklida himoya



qiladi.

Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish tavsiya etiladi.

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Folklor va badiiy adabiyot munosabatlari. Folklorizm tushunchasi.
2. Individual ijodkorning xalq og'zaki ijodidan foydalanish mahorati.
3. Mustaqillik sharofatida xalq og'zaki ijodining davlat maqomiga erishuvi.
4. Akademik litseylarda xalq og'zaki ijodi fanining o'qitilishidagi o'ziga xos tamoyillar.
5. Xalq og'zaki ijodida matn an'anas. Epik janrlarda adabiy badiiy qoliplar va an'anaviy tasvir vositalari.
6. Xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy obrazlar.
7. Bolalar folklori materiallari asosida mazkur folklor namunalarning o'ziga xos belgilarini aniqlash.
8. Xalq ertaklarini o'rganigan folklorshunos olimlar faoliyati.
9. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallari.
10. Hodi Zarif hayoti va ijodiy faoliyati.
11. Xalq og'zaki ijodi xalq qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida.
12. Jangovar ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini.
13. "Dada Qo'rqut kitobi" va "Alpomish" dostonining qiyosiy tahlili.
14. Xalq qo'shiqlaridagi timsollar.
15. Ertaklarda qo'shaloqlashuv usuli.
16. Paralelizm – o'zbek xalq qo'shiqlarining tarkibiy qismi sifatida.
17. "Kuntuz-mish" dostonida psixologik holatning ifoda etilishi.
18. Alisher Navoiy ijodida folklor an'analari.
19. O'zbek folklorshunosligining tadjiriy taraqqiyoti.
20. To'ra Mirzayevning o'zbek folklorshunosligiga qo'shgan hissasi.

"O'zbek folklori" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalarni yechishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda folklor ekspeditiviyasi materiallaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ismi tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, **quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;

- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
  - masofaviy ta'lim.
- Izoh:** Mazkur dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi.

## VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

### Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: "Ma'naviyat", 2010.
  2. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: "Fan", 2009.
  3. Jo'rayev M. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDMI, 2008.
  4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: "Musiq" nashriyoti, 2010.
  5. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: "Mumtoz so'z", 2010
  6. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. Mirzayev T va boshqalar. –T.: "Aloqachi", 2008.
- ### Qo'shimcha adabiyotlar
1. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
  2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал).
  3. Ш. Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курашимиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
  4. Ш.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиғи ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
  5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари" тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель).
  6. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). T.:1999.
  7. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан. – 410 с.
  8. Turdimov Sh. Etnos va epos. Toshkent, O'zbekiston, 2012.
  9. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. –T.: "Fan", 2008.
  10. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadjiri. Toshkent, "Fan", 2006.
  11. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. -T.: "Fan", 2010.
  12. O'zbek xalq og'zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom, 2015, 2016.

### Internet saytlari

1. lectures.ndpi.uz>lektions
2. news.uzreport.uz>news\_9\_ul36022
3. www.folklore.ru.
4. www.folksestr.ru



5. <https://m.vk.com>club1962650>
6. [folklore.tomsk.ru](http://folklore.tomsk.ru)
7. [www.ruthenia.ru>folklore](http://www.ruthenia.ru>folklore)